

SMTda Fransiya delegatsiyasi bilan uchrashuv bo'lib o'tdi



2025-yilning 26-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutida (SMTI) Institut direktorining birinchi o'rinbosari Akramjon Ne'matov Fransiya Qurolli Kuchlari Bosh boshqarmasining Xalqaro munosabatlar va strategiya bo'yicha "Yevropa, Shimoliy Amerika va ko'p tomonlama harakatlar" bo'limi boshlig'i o'rinbosari polkovnik Patrik Brian boshchiligidagi Fransiya delegatsiyasi bilan uchrashdi.

Suhbat chog'ida Markaziy Osiyoda xavfsizlik va mintaqaviy hamkorlik masalalari yuzasidan fikr almashildi.



Fransiyalik ekspertlarga joriy yil 16-noyabr kuni Toshkent shahrida o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi yakunlari, sammitda qabul qilingan hujjatlarning mazmun-mohiyati haqida ma'lumot berildi.

Xususan, qabul qilingan Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik konsepsiyasiga alohida e'tibor qaratildi. Hujjat xavfsizlik masalalariga kompleks yondashuvga asoslangani, bu tahdidlarga muvofiqlashtirilgan javoblarni ishlab chiqish va mintaqaning barqaror rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlash imkonini berishi ta'kidlandi.

Fransiya tomoniga O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash, mintaqaviy sheriklikning institutsional asoslari va mexanizmlarini kengaytirish borasidagi yondashuvlari to'g'risida ham ma'lumot berildi. Mintaqa davlatlari xavfsizlik kotiblari, mudofaa idoralari rahbarlari, maxsus xizmatlar rahbarlari uchrashuvlarining boshlanishi, qo'shma o'quv mashg'ulotlarining o'tkazilishi xavfsizlikni ta'minlashning ishonchli arxitekturasini shakllantirayotgani ta'kidlandi.

Shu bilan birga, mintaqaning barcha sheriklar bilan teng huquqlilik, o'zaro hurmat va manfaatlarni hisobga olish asosida hamkorlik qilish uchun ochiqligi ta'kidlandi. Shu munosabat bilan "Markaziy Osiyo plyus" formatidagi hamkorlikni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratildi, bu mintaqa mamlakatlarining yagona pozitsiyadan turib harakat qilish, xalqaro munosabatlarda Markaziy Osiyoning subyektivligini mustahkamlash istagidan dalolat beradi.

Uchrashuv yakunida tomonlar o'zaro manfaatli sohalarda pozitsiyalarni yaxshiroq tushunish va ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirish uchun fikr almashishni davom ettirishdan o'zaro manfaatdor ekanliklarini tasdiqladilar.

